



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGINING
QARORI

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va maktab-internatlardagi bolalar ta‘minotiga haq to‘lash tartibi
to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2023-yil 13-martdagi PF-34-son “Vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va xodimlar oila a‘zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi hamda Moliya vazirligining 2016-yil 25-iyuldagi 8-mh, 55-son qarori (ro‘yxat raqami 2821, 2016-yil 23-avgust) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 34-son, 406-modda) bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va maktab-internatlardagi bolalar ta‘minotiga haq to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Вазирнинг биринчи ўринбосари

Тошкент ш.
2023 йил 22 июль,
4-мh сон



Шарифходжаев У. У.

Ўзбекистон Республикаси
Иқтисодиёт ва молия вазири

Тошкент ш.
2023 йил 14 июль,
60 сон



SH.D.KUDBIEV

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta’limi vazirligining 2023-yil
22-iyuldagi 4-mh-son hamda
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot
va moliya vazirligining 2023-yil
14-iyuldagi 60-son qaroriga
ILOVA

**Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktab-internatlardagi bolalar ta’minotiga haq to‘lash tartibi
to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirishlar va qo‘shimcha**

1. 5-bobning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5-bob. Kam ta’minlangan oilalarning va boquvchisini yo‘qotgan ayollarning hamda vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo‘lida yaralanganligi, kontuziya yoki mayib bo‘lganligi oqibatida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va xodimlarning farzandlarini to‘lovlardan ozod qilish”.

2. 19-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Boquvchisini yo‘qotgan ayollarning farzandlari, shuningdek vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo‘lida yaralanganligi, kontuziya yoki mayib bo‘lganligi oqibatida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va xodimlarning farzandlari mazkur bandning birinchi xatboshisida ko‘rsatilgan kvotadan qat’i nazar ota-onalar to‘lovidan ozod qilinadi.”.

3. 20-band quyidagi mazmundagi “v” kichik band bilan to‘ldirilsin:

“v) vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo‘lida yaralanganligi, kontuziya yoki mayib bo‘lganligi oqibatida halok bo‘lgan harbiy xizmatchi yoki xodimning o‘lim haqidagi guvohnomasi.”;

sakkizinchi xatboshi to‘qqizinchi xatboshi deb hisoblansin.

4. 26-banddagi “Moliya” degan so‘z “Iqtisodiyot va moliya” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.